

PUL AGREGATLARI, TASHQI SAVDO VA TASHQI QARZLARNING INFLATSIYAGA TA'SIRI.

Axmedova Nodira Abdurashid-qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti 4-bosqich talabasi

E-mail: nodira11022020@gmail.com

+998973319696

Kirish

Oxirgi yillarda butun dunyoda iqtisodiy va geosiyosiy holatda yuz berayotgan beqarorliklar ko'plab davlatlarga va O'zbekistonda ham monetar va fiskal ko'rsatkichlarga ancha ta'sir ko'rsatmoqda. Aholi sonining asta sekin ko'payib borishi, iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi, byudjet xarajatlarining kengayishi va xalqaro moliyaviy oqimlardagi o'zgarishlar paytida mamlakatning pul agregatlari miqdori va davlat qarzi sezilarli ko'tarilib borayabdi. Ayniqsa, 2025-yilning 1-choragi davomida keng ma'nodagi pul massasi (M2) va muomaladagi naqd pullar (M0) darajasining oshishi, inflyatsion bosim va tashqi savdo balansidagi salbiy farq makroiqtisodiy muvozanatga xavf solayabdi.

Bunday sharoitda xalqaro moliyaviy institutlar, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ), O'zbekiston Markaziy bankiga inflyatsiyaga qarshi qat'iy pul-kredit siyosatini yuritish, valyuta kursini bozorga moslashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun ochiq va tushunarli kommunikatsiya yuritishni tavsiya etayabdi. Davlat qarzining YaIMdagi foizi kengayib borayotgani, hamda importning eksportga nisbatan sezilarli darajada ko'pligi tashqi sektor barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maqolada O'zbekistonda 2025-yilning 1-choragi davomida pul massasining o'sishi, davlat qarzining tarkibi, tashqi savdo balansining holati va XVJ tavsiyalari kontekstida pul-kredit siyosatining bahosi tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida olib borilishi lozim bo'lgan siyosiy chora-tadbirlar yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

Metodologiya

O‘zbekistonda keng ma’nodagi pul massasi (M2) 2025-yil fevralidan beri o‘shirda davom etayabdi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 1-may holatiga kelib (M2) 292 trillion so‘mni tashkil etdi, bu esa 1-apreldagi ko‘rsatkichdan 10,5 trillion so‘mga ko‘p. Shu bilan birga, muomaladagi naqd pullar (M0) ham ozgina ko‘payib, 53,3 trillion so‘mga yetdi — bu bir oy oldingiga nisbatan 872 milliard so‘mga ortgan.

Pul massasining ortishiga bir nechta omillar sabab bo‘lishi mumkin: bular davlat xarajatlarining ko‘payishi (ayniqsa, subsidiyalar va infratuzilma loyihalari orqali), Markaziy bank tomonidan qo‘shimcha pul emissiyasi va umumiy iqtisodiy faollikning oshishi bu jarayonda asosiy rol o‘ynashi mumkin.

O‘zbekistonning davlat qarzi ham ko‘payib bormoqda va so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, umumiy davlat qarzi 2,2 milliard dollarga ko‘payib, 42,4 milliard dollarga yetgan. Bu miqdor YaIMning 33,5 foiziga teng bo‘lib, undan 35,5 milliard dollar tashqi qarz, 6,8 milliard dollar esa ichki qarz hisoblanadi.

Bunday iqtisodiy holatlar fonida Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) O‘zbekiston Markaziy bankiga bir qator tavsiyalarni berayabdi. Ulardan biri — pul-kredit siyosatini qat’iy saqlab turishdir. XVJ ga ko‘ra, inflyatsiya 5 foizga yaqinlashguncha, Markaziy bank qattiq pul siyosatini davom ettirishi kerak. Hozirgi vaqtda inflyatsiya va inflyatsion kutilmalar yuqori bo‘lib turgani uchun, foiz stavkasining oshirilishi to‘g‘ri qaror sifatida baholanayabdi.

Valyuta kursi borasida esa so‘mning erkinroq harakatlanishini ta’minlash tavsiya etilayabdi. Bu orqali bozor shoklariga moslashish imkoniyati ortadi va sun’iy ushlab turish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy muammolarning oldi olinadi.

Bundan tashqari, yil davomida valyuta kursiga davlat aralashuvini bosqichma-bosqich kamaytirish va Markaziy bank qarorlarini jamoatchilikka ochiq, aniq va tushunarli shaklda yetkazish ham XVJ tomonidan tavsiya etilayabdi. Bu esa iqtisodiy ishonchni mustahkamlab, inflyatsion kutishlarni pasaytirishga xizmat qiladi.

Tashqi savdoda, O‘zbekiston eksport ko‘rsatkichlari yildan-yilga o‘shib borayabi. 2020-yilda 15,1 milliard dollar bo‘lgan, 2024-yilda 26,9 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, import ham ortib borgan: 2020-yilda 21,1 milliard dollarni tashkil etgan

bo'lsa, 2024-yilda 38,9 milliard dollarga yetgan. Natijada, 2024-yilda import eksportdan 12 milliard dollarga yuqori bo'lgan, bu esa tashqi savdo balansidagi salbiy farqning davom etayotganini ko'rsatadi.

Muhokama

O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan pul massasi o'sishi va davlat qarzining kengayib borayotgani inflyatsion xavflarni kuchaytirib, monetar siyosat oldida murakkab muvozanatni ta'minlash vazifasini qo'yayabdi. M2 agregatining 2025-yil fevralidan maygacha 10,5 trillion so'mga oshgani, ayniqsa qisqa muddat ichida bunday dinamikani ko'rsatgani, iqtisodiy faollikning ortishi bilan bir qatorda, pul taklifi bo'yicha ortiqcha bosimni ham yuzaga keltiryabdi. Naqd pul (M0) hajmining ham o'sishi ichki talabda likvidlik darajasining yuqoriligidan dalolat beradi. Bunday sharoitda, monetar siyosatning asosiy maqsadi inflyatsiyani nazoratda ushlab turish bo'lishi kerakligi aytiladi.

Inflyatsiyaning yuqori darajada saqlanib qolayotgani Markaziy bankni asosiy foiz stavkasini qayta ko'rib chiqishga majbur qilayabdi. Bu qaror XVJ tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda, chunki real foiz stavkasining ijobiy bo'lishi pulning qadrsizlanishiga qarshi muhim vosita bo'lishi mumkin. Lekin, foiz stavkalarining yuqoriligi iqtisodiy o'sishga qisqa muddatli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ayniqsa kreditlar narxining ortishi investitsiyaviy faollikni cheklashiga hizmat qilishi mumkin.

Valyuta kursining erkinlashuvi, XVJning bozorga asoslangan yondashuvga o'tishni tavsiya qilayotgani, uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlik uchun muhim qadamlardan biri bo'lishi mumkin. So'm kursiga nisbatan davlat aralashuvining kamaytirilishi valyuta bozorining real talab va taklifiga mos ravishda shakllanishini ta'minlaydi. Ammo bu jarayon o'ta ehtiyotkorlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak, bo'lmasa bu import narxlarining keskin o'sishiga olib kelib, inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin.

Davlat qarzining YaIMga nisbatan 33,5 foizga yetgani O'zbekiston uchun hali ham xavfli darajadan uzoq bo'lsada, qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarining ortib borayotgani davlat byudjeti uchun yuk bo'lishi mumkin. Ayniqsa, tashqi qarzning katta

ulushi — 35,5 milliard dollar — valyuta kursi tebranishlari fonida budjet barqarorligini zaiflashtiradi. Shu sababli, yangi qarzlarni jalb qilishda ularning samaradorligi, ya'ni iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir ko'rsatishi aniq baholanishi zarur.

Tashqi savdo balansidagi salbiy farq (2024-yilda import eksportdan 12 milliard dollarga yuqori) milliy valyutaga bo'lgan bosimni kuchaytiradi va to'lov balansining yomonlashuviga olib keladi. Bu holat mamlakatning tashqi qarzga bog'liqligini oshiradi va milliy iqtisodiyotda valyuta zaxiralariga bo'lgan ehtiyojni keskinlashtiradi. Eksport ko'rsatkichlarining nisbatan ijobiy o'sishi (2020–2024 yillarda 15,1 mlrd.dan 26,9 mlrd.dollargacha) quvonarli bo'lsa-da, importning bundan ham tezroq sur'atda oshishi struktura jihatidan muammolar borligini ko'rsatadi. Import asosan sanoat uchun oraliq mahsulotlar va asbob-uskunalarga to'g'ri kelayotgani sanoat transformatsiyasining davom etayotganidan dalolat beradi, ammo bu ichki ishlab chiqaruvchining raqobatbardoshligini oshirish choralarini talab etadi.

XVJ tomonidan ilgari surilgan ochiq va barqaror kommunikatsiya siyosati ayni dolzarb vazifalardan biridir. Iqtisodiy qarorlar aholiga va bozorlarga tushunarli tarzda yetkazilmasa, inflyatsion kutilmalar beqarorlikka olib keladi, bu esa monetar siyosat samaradorligini pasaytiradi. Markaziy bankning ommaviy axborot bilan muloqoti mustahkam bo'lishi, inflyatsiyaga qarshi kurashda ijtimoiy ishonchni oshiradi.

Xulosa

O'zbekistonda pul massasi va davlat qarzining o'sishi, tashqi savdodagi salbiy balans, hamda yuqori inflyatsiya bosimi iqtisodiy siyosatda ehtiyotkorlikni talab etadi. Agar XVJning tavsiyalari asosida pul-kredit siyosati, valyuta kursining erkinlashuvi va ochiq kommunikatsiya olib borilsa, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida qadamlardan biri bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi omillarni hisobga olib qarasak, O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash uchun pul massasi ustidan nazoratni kuchaytirish, qarz siyosatini izchil baholash va valyuta siyosatida ehtiyotkor liberallashtirishni amalga oshirish kerak.

Aks holda, makroiqtisodiy muvozanat izdan chiqishi, inflyatsiya, valyuta qadrsizlanishi va qarz yukining ortishi kabi xavflar yuzaga kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. <https://cbu.uz/uz/statistics/dks/847200/>
2. <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>
3. <https://www.imf.org/en/News/Articles/2025/04/23/mcs-042325-uzbekistan-staff-concluding-statement-of-the-2025-article-iv-mission>
4. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2360/table-data>
5. https://cbu.uz/en/press_center/reports/2171801/?utm_source